



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

UNIVERSITETLARNING RIVOJLANISH MODELLARI VA OLIY TA'LIM INNOVATSION INFRATUZILMA XIZMATLARI UYG'UNLASHUVI

Mardonova Go'zal Mamatqul qizi

QDTU 2-kurs doktoranti

guzalmardonova398@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur tezisda oliy ta'lim muassasasining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish va uning xizmatlarini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan. Oliy ta'limdagi innovatsion infratuzilma faqat texnopark yoki alohida innovatsiya markazi bilan cheklanmasdan, ilmiy laboratoriyalar, FabLab markazlari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, texnologiyalar transferi, intellektual mulkni himoya qilish, startaplarni moliyalashtirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish xizmatlarining yagona tizimi sifatida qaralgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion xizmatlar.

Abstract:

This thesis examines the formation of innovation infrastructure within higher education institutions and the development of its services. Innovation infrastructure in higher education is considered not merely as a technopark or a separate innovation center, but as an integrated system of services encompassing research laboratories, FabLab centers, business incubators, accelerators, technology transfer, intellectual property protection, startup financing, and the commercialization of research and development outcomes.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Keywords: higher education, innovation, innovation infrastructure, innovation services.

Kirish

Bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim muassasasining vazifasi faqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan cheklanib qolmay, yangi bilim va texnologiyalarni yaratish, ularni talabalar va yosh olimlarning innovatsion tashabbuslari bilan birlashtirish hamda iqtisodiyotning real sektoriga transfer qilishni ham qamrab olmoqda.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy universitetni “ta'lim beruvchi institut”dan “ta'lim–ilm–fan–innovatsiya–tadbirkorlik” integratsiyasini ta'minlovchi innovatsion markazga aylantirish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim va innovatsiya tizimining integratsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yilda davlat ilmiy dasturlari doirasida 323 ta ilmiy loyiha 577,1 mlrd so'm miqdorida moliyalashtirilgan, tijoratlashtirish loyihalari natijasida 51,83 mlrd so'mlik innovatsion mahsulot va xizmatlar sotilgan. Shu bilan birga, 12 ta yangi innovatsion faoliyat infratuzilmasi subyekti tashkil etilgan.

Biroq bu jarayonda muhim masala — innovatsion infratuzilma obyektlarining mavjudligi emas, balki ularning oliy ta'lim muassasasida bir-biri bilan uzviy bog'langan xizmatlar tizimi sifatida ishlashidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion infratuzilma xizmatlarining shakllanishi va rivojlanishi hamda universitetlarning turli avlod modellaridagi funksional xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan nazariy va empirik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, institutsional va qiyosiy yondashuvlar tashkil etadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasasining innovatsion infratuzilmasini universitet ichida ilmiy g'oya va texnologiyalarni yaratish, sinovdan o'tkazish, rivojlantirish, moliyalashtirish, huquqiy himoya qilish, bozorga chiqarish va tijoratlashtirishni ta'minlovchi tashkiliy, moddiy-texnik, moliyaviy, axborot va konsultativ xizmatlar majmui sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bunda innovatsion infratuzilmaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1-jadval Oliy ta'lim innovatsion infratuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning funksional vazifalari

Innovatsion infratuzilma elementi	Asosiy xizmat
Ilmiy laboratoriyalar	Ilmiy tadqiqot va tajriba ishlari
Fablab prototiplash markazi	Innovatsion mahsulot prototipini yaratish
Universitet texnoparki	Ilmiy ishlanmani amaliyotga joriy etish
Akselerator	Startaplarni tezlashtirish va bozorga tayyorlash
Texnologiyalar transferi markazi	Universitet ishlanmalarini korxonalarga transfer qilish
Intellectual mulk xizmati	Patentlash va huquqiy himoya
Grant va loyiha ofisi	Moliyalashtirish manbalarini topish
Raqamli innovatsion platforma	Innovator, investor va korxonalarni bog'lash
Tijoratlashtirish markazi	Ilmiy natijalarni bozorga chiqarish

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda eng muhim muammolardan biri uning alohida bo'linmalar faoliyati sifatida tashkil etilishidir.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA


Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Masalan, universitetda laboratoriya mavjud, biroq unda yaratilgan ishlanmani prototipga aylantirish mexanizmi mavjud emas. Yoki biznes-inkubator faoliyat yuritadi, ammo uning startaplarini moliyalashtirish va investor bilan bog‘lash tizimi shakllanmagan. Yana bir holatda ilmiy ishlanma yaratiladi, lekin patentlash, texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish bo‘yicha professional xizmat mavjud emas.

Shu sababli innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning asosiy mezonlari obyektlar soni emas, balki ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning uzluksizligi va natijadorligi bo‘lishi kerak.

Buni quyidagi zanjir orqali ifodalash mumkin:



1-rasm **Oliy ta‘lim innovatsion infratuzilma xizmatlarining uzluksizlik zanjiri**

Agar ushbu zanjirning biror bo‘g‘ini mavjud bo‘lmasa, universitetdagi innovatsion infratuzilma to‘liq ishlaydigan tizimga aylana olmaydi.

Taklif va xulosalar. Oliy ta‘lim muassasasida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning asosiy maqsadi alohida texnopark, laboratoriya yoki biznes-inkubator tashkil etish emas, balki ilmiy g‘oyani tayyor innovatsion mahsulotga



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

aylantirishga xizmat qiladigan uzluksiz infratuzilmaviy xizmatlar tizimini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot natijasida oliy ta'lim innovatsion infratuzilmasining samarali ishlashi uchun yetti asosiy xizmat — ilmiy-tadqiqot, prototiplash, startaplarni qo'llab-quvvatlash, intellektual mulkni himoya qilish, moliyalashtirish, texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish xizmatlarini yagona tizimga birlashtirish taklif etildi. Shunday qilib, zamonaviy oliy ta'lim muassasasining innovatsion infratuzilmasi "bino va jihozlar majmui"dan "bilimni innovatsion mahsulotga aylantiruvchi xizmatlar ekotizimi"ga transformatsiya qilinishi kerak. Bu yondashuv universitetning ilmiy salohiyatini oshirish, talabalar va yosh olimlarning innovatsion faolligini kuchaytirish hamda ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotning real sektoriga samarali transfer qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Dynamics of Innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations.
2. OECD. Science, Technology and Innovation Outlook. OECD Publishing.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil faoliyati bo'yicha ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi. 2025-yilda innovatsion infratuzilma va startap ekotizimini rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar.
5. Mardonova G.M. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari// Innovatsion iqtisodiyot jurnali. 7-son – T., 2026. B. 25-28.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
6. Mardonova G.M. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion infratuzilma xizmatlari: tarkibi, o'zaro integratsiyasi va rivojlanish istiqbollari// Innovatsion iqtisodiyot jurnali. 7-son – T., 2026. B. 29-32.
 7. Xamrayeva S.N., Mardonova G.M. Oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilma xizmatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari // Innovatsion iqtisodiyot jurnali. 1-son – T., 2025. B. 27-31.